BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA METODIK TAYYORLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shodmonova Muhayyo Qurbonovna
O’zbekiston milliy pedagogika universiteti

Annotatsiya

Zamonaviy ingliz tili ta'limida o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning muhim sharti ingliz tili o'qituvchilarining metodologik tayyorgarligidir. Kommunikativ kompetensiya faqat grammatik aniqlik bilan cheklanmaydi; bu haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda tildan to'g'ri, ravon, strategik va interaktiv tarzda foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shu sababli, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari faqat lingvistik shakllarni takrorlashdan ko'ra, talabalar mazmunli muloqotda ishtirok etadigan o'quvchilarga yo'naltirilgan darslarni tashkil etishga tayyor bo'lishlari kerak. Ushbu maqola ingliz tili o'qituvchilarining o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini oshirishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganadi. Tadqiqot kommunikativ tilni o'rgatish, sinfdagi o'zaro ta'sir va amaliyotga yo'naltirilgan o'qituvchi ta'limining muhimligini ta'kidlaydi. Juftlik bilan ishlash, guruhda ishlash, rolli o‘yin, axborot-bo‘shliq vazifalari, muammoni hal qilish faoliyati, bahs-munozaralar, STAD, jigsaw va Think-Pair-Share kabi kommunikativ sinf faoliyatiga alohida e’tibor beriladi. Bu mashg'ulotlar alohida usullar sifatida emas, balki o'quvchilarda ravonlik, o'zaro ta'sir qilish qobiliyati, nutq kompetensiyasi va strategik muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun uslubiy vosita sifatida qaraladi. Maqolada, shuningdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda mikrota'lim, sinfda kuzatish, tengdoshlarning fikr-mulohazalari va reflektiv amaliyotning roli ta'kidlangan. Ushbu komponentlar o'qituvchilarga kommunikativ faoliyatni sinab ko'rish, sinfdagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilish, uslubiy zaif tomonlarni aniqlash va o'qitish bo'yicha qarorlarini yaxshilash imkonini beradi. Maqolada ta'kidlanishicha, o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ko'p jihatdan o'qituvchining maqsadli vazifalarni ishlab chiqish, o'zaro ta'sirni boshqarish va aniq mezonlar orqali kommunikativ faoliyatini baholash qobiliyatiga bog'liq.

Kalit so'zlar. *ingliz tili o'qituvchilari, metodik tayyorgarlik, kommunikativ kompetentsiya, kommunikativ tilni o'rgatish, pedagogik imkoniyatlar, sinfdagi o'zaro ta'sir, mikrota'lim, reflektiv amaliyot, kommunikativ faoliyat.*

KIRISH

Zamonaviy ingliz tili ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi til o‘qitish metodikasining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Chunki bugungi ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘rganish faqat grammatik qoidalarni bilish, lug‘aviy birliklarni yodlash yoki namunaviy gaplarni takrorlash bilan chegaralanmaydi. Til o‘rganuvchi real muloqot jarayonida fikr bildirish, savol berish, suhbatdosh munosabatiga javob qaytarish, nutqiy vaziyatga mos ifoda tanlash va kommunikativ muammoni hal qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shunday ekan, o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bevosita ingliz tili o‘qituvchisining metodik tayyorgarligi bilan bog‘liqdir.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida metodik kompetensiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kelajakdagi o‘qituvchi nafaqat til tizimini bilishi, balki shu bilimni o‘quvchilarning faol muloqot ko‘nikmalariga aylantira olishi kerak. Bu esa darsni kommunikativ maqsad asosida loyihalash,

o‘quvchilarni interfaol faoliyatga jalb etish, juftlik va guruh ishlarini samarali tashkil qilish, nutqiy topshiriqlarni tanlash, baholash mezonlarini belgilash va reflektiv tahlil qilish kabi murakkab metodik ko‘nikmalarni talab etadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasining ilmiy asoslari D. Hymes tomonidan ishlab chiqilgan qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib, u til qobiliyatini faqat grammatik bilim doirasida izohlash yetarli emasligini ta’kidlagan. Olimning fikricha, til egasi grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish bilan birga, ushbu gapning qaysi vaziyatda, qanday maqsadda va qanday ijtimoiy sharoitda qo‘llanishini ham bilishi zarur [1, B. 277–278]. Bu yondashuv til o‘qitishda “to‘g‘ri gapirish” mezonidan “mos va maqsadli muloqot qilish” mezoniga o‘tish zaruratini ko‘rsatadi.

M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetensiyani til bilimlari va nutqiy foydalanish strategiyalarining o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida talqin etadilar. Ularning yondashuvida grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya va strategik kompetensiya o‘zaro aloqador tarkibiy qismlar sifatida ko‘riladi [2, B. 27–31]. Mazkur nazariy qarashlar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim metodik xulosaga olib keladi: o‘quvchining kommunikativ rivoji faqat til shakllarini o‘zlashtirish orqali emas, balki ularni ijtimoiy vaziyatda, muloqot maqsadida va nutqiy strategiyalar asosida qo‘llash orqali yuzaga keladi.

Kommunikativ kompetensiya va metodik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liqligi

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi kommunikativ kompetensiyani nazariy tushunishdan boshlanadi, biroq bu jarayon nazariya bilan yakunlanmaydi. Talaba-o‘qituvchi kommunikativ kompetensiyaning mohiyatini bilishi bilan birga, uni real dars sharoitida rivojlantirish mexanizmlarini ham egallashi lozim. Aks holda kommunikativ yondashuv dars rejasida mavjud bo‘lgan, ammo amaliyotda yuzaki qo‘llanadigan tushunchaga aylanib qoladi.

Kommunikativ til o‘qitish yondashuvi o‘quvchini tayyor til birliklarini takrorlovchi passiv ishtirokchi emas, balki ma’no yaratish jarayonining faol subyekti sifatida ko‘radi. J. C. Richards kommunikativ til o‘qitishning asosiy tamoyillari sifatida real muloqotni o‘quv jarayonining markaziga qo‘yish, o‘quvchilarga tilni sinab ko‘rish imkoniyatini yaratish, xatolarga o‘quvchining kommunikativ rivojlanish belgisi sifatida qarash hamda fluency va accuracy o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi [3, B. 13]. Bu fikr bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligida muhim metodik yo‘nalishni belgilaydi: darsda grammatik to‘g‘rilikni saqlagan holda, o‘quvchilarning erkin, izchil va maqsadli muloqotga kirishish imkoniyatini kengaytirish lozim.

Kommunikativ darsning sifati faqat o‘quvchilarning gapirgan-gapirmaganligi bilan o‘lchanmaydi. Muhim masala shundaki, ular qanday kommunikativ vazifani bajaryapti, qanday fikr almashyapti, suhbat jarayonida qanday strategiyalardan foydalanmoqda va muloqot natijasida qanday mazmuniy mahsulot yaratilmoqda. Richards fluency faoliyatlarini tavsiflar ekan, bunday topshiriqlar tabiiy til qo‘llanishini aks ettirishi, ma’no almashishga qaratilishi, kommunikativ strategiyalarni ishga solishi va o‘quvchi nutqini oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan holatga olib chiqishi zarurligini ta’kidlaydi [3, B. 14]. Demak, bo‘lajak o‘qituvchi uchun

kommunikativ topshiriqni tanlashda uning tashqi shakli emas, ichki kommunikativ salohiyati asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Amaliyotda ko‘pincha juftlikda ishlash, guruhga bo‘lish yoki dialog o‘qitish avtomatik tarzda kommunikativ faoliyat deb qabul qilinadi. Bunday qarash metodik jihatdan zaifdir. Agar o‘quvchi faqat oldindan berilgan dialogni ovoz chiqarib o‘qisa yoki tayyor javobni takrorlasa, bu faoliyat tashqi tomondan interaktiv ko‘rinsa-da, kommunikativ kompetensiyani yetarli darajada rivojlantirmaydi. Kommunikativ faoliyatda o‘quvchi tanlov qiladi, ma’lumot almashadi, suhbatdosh javobiga moslashadi, aniqlashtiradi, fikrini himoya qiladi yoki muloqotdagi tushunmovchilikni bartaraf etadi. Shuning uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi kommunikativ faoliyatni mexanik mashqdan ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilishi zarur.

Kommunikativ faoliyatlarni loyihalashning pedagogik imkoniyatlari

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda dars faoliyatlarini puxta loyihalash muhim pedagogik imkoniyat hisoblanadi. O‘qituvchi tanlagan har bir topshiriq o‘quvchini ma’lum nutqiy harakatga undashi, muloqotga ehtiyoj tug‘dirishi va tilni maqsadli qo‘llashga yo‘naltirishi kerak. D. Nunan kommunikativ vazifalarni loyihalashda topshiriq, maqsad, input material, faoliyat turi, o‘quvchi roli va o‘qituvchi roli o‘rtasidagi bog‘liqlikni alohida ta’kidlaydi [4, B. 18–20]. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchiga darsni faqat mavzu va mashqlar ketma-ketligi sifatida emas, balki o‘quvchini muloqotga olib kiruvchi pedagogik tizim sifatida loyihalash imkonini beradi.

Pair work va group work kommunikativ darsning muhim tashkiliy shakllari bo‘lsa-da, ularning samaradorligi metodik maqsadga bog‘liq. Juftlik ishi o‘quvchiga ko‘proq nutqiy vaqt beradi, psixologik to‘siqni kamaytiradi va individual ishtirokni kuchaytiradi. Guruh ishi esa muhokama, kelishuv, qaror qabul qilish va fikrlar xilma-xilligidan foydalanish imkonini yaratadi. Biroq bu shakllar o‘z-o‘zidan kommunikativ natija bermaydi. O‘qituvchi topshiriqning maqsadini aniq belgilamasa, rollarni taqsimlamasa, vaqt chegarasini ko‘rsatmasa va natijani baholash mezonini bermasa, guruh ishi shovqinli, ammo metodik jihatdan samarasiz faoliyatga aylanib qolishi mumkin.

Role play, information-gap, problem-solving va debate kabi faoliyatlar kommunikativ kompetensiyaning turli jihatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga ijtimoiy vaziyatga mos nutqiy birliklarni tanlash, suhbatdosh maqomi va vaziyat talabini hisobga olish imkonini beradi. Information-gap topshiriqlari o‘quvchilar o‘rtasida tabiiy ma’lumot ehtiyojini yuzaga keltiradi, chunki har bir ishtirokchi muloqot orqali yetishmayotgan axborotni to‘ldiradi. Muammoli vaziyatlar va bahs-munozaralar esa fikrni asoslash, dalil keltirish, qarshi fikrga javob berish va muloqotni boshqarish ko‘nikmalarini faollashtiradi. Nunan topshiriqlar ketma-ketligi va murakkabligini belgilashda information-gap hamda interactive problem-solving kabi faoliyatlarning kommunikativ darsdagi o‘rnini alohida ko‘rsatadi [4, B. 122–128].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni bunday faoliyatlarni loyihalashga o‘rgatishda asosiy e’tibor tayyor metodlarni yodlashga emas, balki ularning pedagogik mexanizmini

anglashga qaratilishi lozim. Masalan, role play faqat “rolga kirish” emas, balki vaziyat, kommunikativ maqsad, nutqiy vosita, suhbatdosh maqomi va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni talab qiladi. Debate faqat fikr aytish emas, balki argument tuzish, dalilni tartiblash, qarama-qarshi nuqtayi nazarni tinglash va javob strategiyasini tanlash jarayonidir. Shu jihatdan, kommunikativ faoliyatlar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining metodik tafakkurini rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida baholanishi mumkin.

Kooperativ ta’lim texnologiyalari ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda keng imkoniyat yaratadi. STAD, jigsaw va think–pair–share kabi yondashuvlar o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, individual mas’uliyat va faol muloqotni kuchaytiradi. Bunday faoliyatlarda o‘quvchi faqat o‘z javobi uchun emas, balki guruhdagi umumiy natija uchun ham mas’ul bo‘ladi. Bu esa kommunikativ jarayonda tinglash, tushuntirish, savol berish, yordam so‘rash va kelishuvga erishish kabi ko‘nikmalarni tabiiy ravishda faollashtiradi. Bo‘lajak o‘qituvchi ushbu metodlarni qo‘llashda ularning tashkiliy qoidalarini emas, balki kommunikativ maqsadini chuqur tushunishi zarur.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik pozitsiyasini shakllantirish

Metodik tayyorgarlikning muhim jihati shundaki, bo‘lajak o‘qituvchi til materialini qanday o‘rgatishni emas, balki o‘quvchining kommunikativ rivojlanishini qanday tashkil etishni o‘rganadi. L. Shulman o‘qituvchi bilimini faqat predmet mazmuni bilan chegaralamaydi; uning pedagogik mazmun bilimi haqidagi qarashlari o‘qituvchining mazmunni o‘quvchi uchun tushunarli va o‘zlashtiriladigan shaklga aylantira olish qobiliyatini asoslaydi [5, B. 8–9]. Bu fikr ingliz tili o‘qituvchisi tayyorgarligi uchun ayniqsa muhimdir. Chunki grammatik mavzuni tushuntirish boshqa, uni kommunikativ vaziyatda qo‘llanadigan topshiriqqa aylantirish esa mutlaqo boshqa metodik darajani talab qiladi.

Shulman ta’kidlaganidek, o‘qitish jarayoni tushunish, transformatsiya, ko‘rsatish, moslashtirish va refleksiya kabi bosqichlar bilan bog‘liq murakkab intellektual faoliyatdir [5, B. 15]. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi ham til materialini tayyor ko‘rinishda o‘quvchiga uzatmaydi; u mazmunni o‘quvchining yoshi, til darajasi, kommunikativ ehtiyoji va sinf sharoitiga moslashtiradi. Shu sababli metodik tayyorgarlik jarayonida talaba-o‘qituvchilar bir mavzuni turli kommunikativ faoliyatlarga aylantirish, topshiriqni soddalashtirish yoki murakkablashtirish, o‘quvchilar nutqini qo‘llab-quvvatlash va natijani tahlil qilish bo‘yicha amaliy tajriba orttirishlari kerak.

Pedagogik imkoniyatlar aynan shu nuqtada yaqqol ko‘rinadi. Agar bo‘lajak o‘qituvchi darsni faqat “mavzu — qoida — mashq — nazorat” ketma-ketligi asosida tasavvur qilsa, u o‘quvchilarni muloqotga yetarli darajada jalb eta olmaydi. Agar u darsni “kommunikativ ehtiyoj — nutqiy vazifa — o‘zaro ta’sir — fikr-mulohaza — refleksiya” mantiqi asosida loyihalasa, o‘quvchilarning til o‘rganish jarayoni ancha faol va mazmunli tus oladi. Demak, metodik tayyorgarlikning pedagogik imkoniyati bo‘lajak o‘qituvchini tayyor topshiriq ijrochisidan kommunikativ ta’lim muhitini yaratuvchi mutaxassisga aylantirishidadir.

Microteaching va reflektiv amaliyotning ahamiyati

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga tayyorlashda microteaching samarali amaliy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Microteaching talaba-o‘qituvchiga real darsning murakkabligini qisqartirilgan, boshqariladigan va tahlil qilish mumkin bo‘lgan shaklda sinab ko‘rish imkonini beradi. Allen va Ryan microteachingni o‘qituvchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik texnikasi sifatida talqin qiladilar [6, B. 75]. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchiga kommunikativ topshiriqni rejalashtirish, ko‘rsatma berish, vaqtni boshqarish, o‘quvchilarni faollashtirish va fikr-mulohaza berish kabi ko‘nikmalarni xavfsiz o‘quv muhitida mashq qilish imkonini yaratadi.

Microteaching jarayonida kommunikativ faoliyatlar nazariy tavsifdan amaliy tajribaga aylanadi. Talaba-o‘qituvchi, masalan, information-gap yoki role play topshirig‘ini ishlab chiqadi, uni kichik guruhda sinab ko‘radi, tengdoshlar va o‘qituvchi-trenerdan fikr-mulohaza oladi, keyin topshiriqni qayta tahrir qiladi. Shu jarayonda u topshiriq ko‘rsatmasining aniqligi, o‘quvchilar nutqiy faolligi, vaqt taqsimoti, interaksiya sifati va baholash mezonlarining amaliy qiymatini ko‘ra boshlaydi. Bu esa metodik tayyorgarlikni abstrakt bilimdan real kasbiy ko‘nikmaga aylantiradi.

Reflektiv amaliyot microteachingdan keyingi muhim bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. T. Farrell reflektiv amaliyotni til o‘qituvchisining o‘z pedagogik qarorlarini anglash, tahlil qilish va takomillashtirish imkonini beruvchi jarayon sifatida izohlaydi [7, B. 5]. Refleksiya bo‘lajak o‘qituvchiga o‘z darsiga tashqi baho sifatida emas, ichki kasbiy rivojlanish manbai sifatida qarashni o‘rgatadi. Bunda talaba-o‘qituvchi “dars o‘tdimi?” degan savol bilan cheklanmaydi; u “o‘quvchilar muloqotga kirdimi?”, “topshiriq kommunikativ maqsadga xizmat qildimi?”, “qaysi ko‘rsatma noaniq bo‘ldi?”, “qaysi o‘quvchilar chetda qoldi?”, “fikr-mulohaza kommunikativ rivojlanishga yordam berdimi?” kabi savollar orqali o‘z faoliyatini chuqurroq tahlil qiladi.

Farrell reflektiv amaliyot uchun til o‘qituvchilariga mos framework taklif etar ekan, o‘qituvchi o‘z falsafasi, prinsiplari, nazariy qarashlari, amaliyoti va undan tashqaridagi omillarni tahlil qilishi zarurligini ko‘rsatadi [7, B. 11]. Bunday yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisiga darsdagi har bir metodik qarorning ortida muayyan pedagogik qarash turganini anglashga yordam beradi. Reflektiv amaliyotning qiymati ham shundaki, u talaba-o‘qituvchini tayyor tavsiyalarni bajaruvchi emas, o‘z qarorini asoslay oladigan, natijani tahlil qiladigan va o‘z faoliyatini takomillashtiradigan mutaxassis sifatida shakllantiradi.

Baholash va fikr-mulohaza berishning metodik roli

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limda baholash jarayoni ham an’anaviy yondashuvdan farq qiladi. Bunday darslarda faqat grammatik xatolarni aniqlash yoki to‘g‘ri javoblar sonini hisoblash yetarli emas. O‘quvchining kommunikativ muvaffaqiyati uning fikrni tushunarli yetkazishi, suhbatni davom ettirishi, mos leksik-grammatik vositalardan foydalanishi, vaziyatga mos nutq tanlashi va muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishi bilan belgilanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar baholash mezonlarini tuzishda fluency, accuracy, interaction, coherence, pronunciation, vocabulary range va strategic competence kabi

ko‘rsatkichlarni uyg‘unlashtira olishlari kerak. Bunda baholash faqat yakuniy nazorat vositasi emas, balki o‘quvchini keyingi kommunikativ rivojlanishga yo‘naltiruvchi fikr-mulohaza mexanizmi sifatida ishlaydi. Richards fluency va accuracy faoliyatlari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatar ekan, kommunikativ faoliyatlarda ma’no almashish, strategiyalardan foydalanish va kommunikativ natijaga erishish muhimligini ta’kidlaydi [3, B. 14–15]. Shu sababli baholash jarayoni ham faqat til shakliga emas, tilning kommunikativ vazifasiga qaratilishi kerak.

Peer feedback va self-assessment bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligida ham, o‘quvchilar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tengdoshlar fikr-mulohazasi talaba-o‘qituvchiga dars jarayonini turli nuqtayi nazardan ko‘rish imkonini beradi. O‘z-o‘zini baholash esa kasbiy mas’uliyat va reflektiv tafakkurni kuchaytiradi. Farrell reflektiv o‘qituvchi maqsadli ravishda o‘z faoliyatini tahlil qilishi va bu jarayonda kasbiy ongni rivojlantirishi kerakligini ta’kidlaydi [7, B. 23]. Shunday ekan, metodik tayyorgarlikda baholash va refleksiya bir-biridan ajratilmasligi lozim.

MUHOKAMA

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga metodik tayyorlash nazariy, amaliy va reflektiv komponentlarning uzviy bog‘liqligini talab etadi. Faqat CLT haqida ma’ruza qilish yoki kommunikativ metodlar nomini o‘rgatish yetarli emas. Talaba-o‘qituvchi kommunikativ kompetensiya nima ekanini tushunishi, uni rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlarni loyihalashi, darsda interaksiyani boshqarishi, o‘quvchi nutqini baholashi va o‘z faoliyatini tahlil qilishi zarur.

Mavjud muammolardan biri shundaki, ayrim hollarda kommunikativ yondashuv tashqi shakllar darajasida qabul qilinadi. Darsda guruh ishi bo‘lsa, rolli o‘yin o‘tkazilsa yoki savol-javob tashkil qilinsa, bu avtomatik tarzda kommunikativ ta’lim deb baholanadi. Aslida esa kommunikativlik faoliyat shaklida emas, o‘quvchining ma’no yaratish jarayoniga jalb etilishida namoyon bo‘ladi. Shu bois metodik tayyorgarlikda talaba-o‘qituvchilar har bir faoliyatni kommunikativ maqsad, interaksiya sifati, nutqiy erkinlik va natija mezonlari asosida tahlil qilishga o‘rgatilishi kerak.

Pedagogik imkoniyatlar dars jarayonini amaliyotga yaqinlashtirishda ko‘rinadi. Microteaching, classroom observation, peer feedback va reflective journal kabi vositalar bo‘lajak o‘qituvchini passiv bilim oluvchidan faol tahlilchi va dizaynerga aylantiradi. U darsni tayyor model sifatida emas, metodik qarorlar tizimi sifatida ko‘ra boshlaydi. Bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatda o‘quvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga moslashish, interaktiv muhit yaratish va dars natijasini ilmiy-metodik asosda baholash imkonini beradi.

XULOSA

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga metodik tayyorlash zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kommunikativ kompetensiya grammatik bilimdan kengroq tushuncha bo‘lib, u tilni ijtimoiy vaziyatda, maqsadli va strategik tarzda qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash

jarayonida kommunikativ til o‘qitish tamoyillarini amaliy dars faoliyatlari bilan bog‘lash zarur.

Maqolada tahlil qilingan pedagogik imkoniyatlar shuni ko‘rsatadiki, kommunikativ faoliyatlarni loyihalash, juftlik va guruh ishlarini samarali tashkil etish, role play, information-gap, problem-solving, debate va kooperativ ta’lim usullaridan maqsadli foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytiradi. Microteaching, peer feedback va reflektiv amaliyot esa ushbu tayyorgarlikni real kasbiy ko‘nikmaga aylantiradi.

Demak, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi nazariy bilim, amaliy faoliyat va reflektiv tahlil birligida tashkil etilgandagina o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv kelajakdagi o‘qituvchining darsni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki o‘quvchilarni mazmunli muloqotga olib kiruvchi pedagogik muhit sifatida loyihalashiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hymes D. H. On communicative competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J. B. Pride, J. Holmes. Harmondsworth: Penguin Books, 1972. P. 269–293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics. 1980. Vol. 1, No. 1. P. 1–47.
3. Richards J. C. Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. 47 p.
4. Nunan D. Designing Tasks for the Communicative Classroom. Cambridge: Cambridge University Press, 1989. 211 p.
5. Shulman L. S. Knowledge and teaching: Foundations of the new reform // Harvard Educational Review. 1987. Vol. 57, No. 1. P. 1–22.
6. Allen D. W., Ryan K. Microteaching. Reading, MA: Addison-Wesley, 1969. 151 p.
7. Farrell T. S. C. Reflective Practice for Language Teachers. London: British Council, 2024. 28 p.